



## BOLALIKTEPA YODGORLIGI HAQIDA

*Hazratqulov Islomjon Yo‘ldosh o‘g‘li*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida joylashgan Bolaliktepa yodgorligi va uning o‘ziga xos tarixi haqida so‘z boradi. Bolaliktepa V-VI asrlarda qadimgi Termizshohlarga tegishli bo‘lgan qal’a-qasr bo‘lib, Vatanimiz moddiy madaniy me’morchiligidagi katta ahamiyatga ega yodgorlik hisoblanadi.

**Kalit so’zlar:** Termizshohlar, Angor tumani, Bolaliktepa yodgorligi, L. Albaum, 47 kishi tasviri, 16 xona, devoriy tasvirlar, Angor tumani tarixi, Zafarnoma, qal’a-qasr.

Tarixiy yodgorliklarimiz kechani bugunga ulovchi, xalqni kechagi kun bilan tanishtiruvchi beباho boylikdir. Ularni asrab avaylash, kelgusi avlodlarga bor bo‘yicha yetkazish bizning burchimizdir. Ammo haqiqiy holat qanday? Haqiqatan ham o‘zimizning ayni boradagi burchimizni ado eta olyapmizmi? Bunda tarixiy yodgorliklar, madaniy meros obyektlarining holati asl haqiqatni so‘zlaydi[1].

Markaziy Osiyoning o‘rta asrlarga oid eng muhim arxeologik yodgorliklaridan biri Bolaliktepa bo‘lib, uning qurilishi va faoliyati V-VI-asrlarga to‘g‘ri keladi. Bu obida qadimgi Termiz hududida yashagan xalqlarning turmush tarzi, diniy e’tiqodlari va san’ati haqida qimmatli ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan.

Bolaliktepadan topilgan eng katta xonaning o‘rtasida davra shaklidagi otashkada qurilgan bo‘lib, uning ichidan kuygan bug‘doy doni va o‘rik danaklari qoldiqlari topilgan. Shuningdek, qazilmalar davomida turli sopol va shisha idishlar, musiqiy asbob qismlari, naqshinkor chilim, taqinchoqli ipak kiyim bo‘laklari, bola



emizayotgan ayol tasviri tushirilgan shisha medalyon, yog‘och qoshiq kabi ashyolar aniqlangan.

Xonalardan birida devoriy rasmlar topilgan bo‘lib, unda to‘y marosimi tasvirlangan. Ushbu topilmalar qadimgi davr hayoti, madaniyati va san’atining yuqori darajasidan dalolat beradi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida “Bolaliktepa” ko‘shki markaziy qismidan antiqa devoriy suratlar topilgan. Ushbu suratlar zalning supa sathidan boshlab to‘rt tarafini bezab turganligi aniqlangan. Ularda V-VII asrlarda zodagonlar va katta yer egalari qarorgohida bo‘lib o‘tadigan bazm jarayoni tasvirlangan bo‘lib, jami 47 nafar shaxs aks ettirilgan[5].

Bolaliktepa V-VI asrlarda qadimgi Termiz shohlari- Termizshohlarga tegishli bo‘lgan qal’a-qasr vazifasini o’tagan. Bu tarixiy obida Termizdan 30 km shimolda, hozirgi Angor tumanida joylashgan bo‘lib, katta va kichik tepaliklardan iboratligi sababli shunday nomlangan.

Shu o‘rinda Angor tumani va uning o‘z qisqacha tarixi, etimologiyasiga to’xtalsak, Angor so’zining etimologiyasini turli adabiyotlarda turlicha sharhlashadi. Ya’ni hosili terib olingan ekinzor, qadimgi maydon o’lchovi, qat’iy bir birlikka teng emas, xar joyda har xil. Atrofi uvat bilan o’ralgan yaxlit ekin maydoni Angor deyiladi. Demak Angor „atrofi o’ralgan yer, qishloq” deb ta’rif berilgan. Bu mahalliy bobolarimiz gapiga ham to’g’ri keladi. Ular qorasuv daryosi bo’ylarida yashagan paytlarda bu yerlarga arpa va bug’doy ekib kun kechirishgan. Hosilni yig’ib olgach joyini angara deyishgan.

Angor qishlog’ nomi Sharofuddin Ali Yazdiyning „Zafarnoma” asarida ham uchraydi. Sibir tomonlarda angara daryosi bor, Angor echkisi ham mashxur. Turkiyada angor qal’asi mavjud[6]. Ammo ba’zi olimlar Angor so’zi anhor so’zidan kelib chiqqan desa, ayrimlari karvonlar qo’nib o’tadigan makon deb nomlashadi.

Qadimda uning atrofida Navshahar, Kayran, Xayrobod, Oftobrabod, Tallimaron, Zang, Takiya, Istara kabi qishloqlarga bo’lingan. Angor tumanida



hozirgi kunda yigirmadan ortiq tarixiy obidalar mavjud. Ulardan eng mashxurlari Bolaliktepa, Zartep shuningdek O'rdalitepa, Teshiktepa, Nog'aratepa kabi tarixiy yodgorliklar bor[4].

Bu yodgorliklar ichida Bolaliktepaning o'rni va ahamiyati kattadir. Yodgorlikning o'rganilish tarixi qisqa va uzviylikka ega emasdir. Bolaliktepa yodgorligi V-VII asrlarga mansub tasviriy san'atning nodir namunalaridan biri 1953-1955-yillarda arxeolog L.I.Albaum tomonidan Surxondaryo viloyatining Angor tumanida joylashgan Bolaliktepa yodgorligini qazib olib o'rganildi. Qal'a-qasr to'rtburchak shaklda qurilgan bo'lib, poydevori paxsa (30x30x6 m), uning ustiga xom g'isht (50x30x10 sm) terilgan. Inshoot 16 xonadan iborat bo'lib, ularning 11 tasi V-asrda, qolgan 5 tasi esa VI-asrda bunyod etilgan. Tashqi tomonidagi xonalar devorlarida nishon tuynuklari bo'lgan[3].

Kattagina xonaning devorlarida rangli bo'yoqlar bilan qandaydir mehmondorchilik-izdahom tasvirlangan.Unda gilamchilar ustida juft-juft bo'lib,tiz cho'kib o'tirgan erkak va ayollar tasvirlangan. Erkaklarning egnida uchburchak shaklda keng qaytarma yoqali va hoshiyali uzun kamzul oyog'ida mahsi'belida ingichka kamarga o'tkazilgan qayrilma uchli xanjar osilgan. Birida vaza,ikkinchisida to'g'ri tutgan qo'llarning jimjilog'ida bittadan ikkita yirik ko'zli uzuk taqilgan. O'ng qo'lida qadah so'lida ko'zga tutgan ayollarning kiyim-kechaklari nihoyatda bashing.Ichki Libos ustidan hoshiyali qaytarma yoqali hamda uqali uzun va keng guldar yopinchiq-qobo yelkaga tashlangan. Quloqlarida yakkadurli zirak jimjiloqlarida esa ko'zli uzuk taqilgan[4].

Xullas Bolaliktepa qasri devorlarida tasvirlangan ayollarning tashqi qiyofasi VI asrda eftallar hukmdori huzurida bo'lgan budda kohinini hayratga solgan saroy ayollarini eslatadi. Uning ta'riflashicha o'sha vaqtarda fetal malikalari juda qimmataho matodan tikilgan,orqa etagi uch quloch va undan ham uzunroq bo'lgan serbezak ko'yak kiyar, uning etagini esa maxsus joriyalar ko'tarib yurganlar. Qala-qasr tortburchak shakldagi paxsa poydevor ustiga xom g'shtdan



qurilgan bo'lib, 16 xonadan iborat. Xonalaridan sopol va shisha idishlar, turli musiqiy asbob bo'laklari naqshinkor chilim, taqinchoqlar o'ralgan ipak kiyimlar parchasi va boshqalar topilgan. Xonalardan birida to'y marosimi aks ettirilgan devoriy rasmlar bo'lgan[2]. Katta va kichik tepaliklardan iborat bo'lganligi uchun ham shunday nom berigan deyishadi. Bolaliktepa yodgorligidagi devoriy suratlarda bazm jarayoni tasvirlangan bo'lib, yuqorida aytilganidek, jami 47 nafar shaxs tasvirlari aks ettirilgan.

Xulosa qilib aytganda Bolaliktepa V asrda qurilgan bo'lib, shu asrning oxirida yoki VI asr oxirida qayta qurilgan. VII asr birinchi choragida esa Bolaliktepa shahar – qal'asi tushkunlikka yuz tutgan. Bolaliktepa yodgorligi V-VI asrlarga tegishli termizshohlar qal'a-xarobasi bo'lib, u katta va kichik tepaliklardan iborat bo'lgani uchun shunday atalgan. Bolaliktepa yodgorligini O'tgan asrning 50 yillarida san'atshunos arxeolog L.I.Albaum o'rgangan, u 16 xonadan iborat. Xonalardan 11 tasi V asrda, 5 tasi VI asrda bunyod etilgan. Xonalardan sopol va shisha idishlar, turli musiqiy asbob bo'laklari, nakshinkor chilimlar, taqinchoqlar qadalgan ipak kiyimlar parchasi, chordana qurib bola emizayotgan ayol tasviri tushirilgan shisha turunj (medalon), yog'och qoshiq va boshqa shu kabi buyumlar topilgan. Xonalardan birida devorlarda to'y marosimi aks ettirilgan devoriy rasmlar topilgan.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdullaev B. A. "O'zbekiston arxeologiyasi" Toshkent. 2002. 56-57-b.
2. Eshov B. O'rta Osiyoning qadimgi shaharlari. Toshkent. 2008. 8-b.
3. Saidov Sh. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi. O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2010. 109-b.
4. [www.surxon Tongi.uz](http://www.surxon Tongi.uz) internet sayti
5. [www.milliycha.uz](http://www.milliycha.uz) internet sayti
6. [www.wikipedia.uz](http://www.wikipedia.uz) internet sayti